

2023-yil 26-sentabr kuni Nukus shahar Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi binosida “Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyati sayyor qabuli tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birgalikda o‘tkazilgan tadbirda Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisi, sayyohlik kompaniyalari, tadbirkorlar, jismoniy va yuridik shaxslar, faol yoshlar, ommaviy axborot vositalari vakillari, blogerlar faol ishtirok etdi.

Tadbir boshida aviakompaniya vakillari yil boshidan buyon amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar, yo‘lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida olib borilayotgan doimiy aksiyalar haqida so‘zlab berishdi. Aviaparkni to‘ldirish, qatnovlarni tiklash va

yangi yo‘nalishlarni yo‘lga qo‘yish yaqin yillardagi Uzbekistan Airways aviakompaniyasining asosiy vazifasi hisoblanadi.



Uchrashuvning asosiy maqsadi yo‘lovchilarni tashish bilan bog‘liq va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalarni joyida ko‘rib chiqish etib belgilangan. Bu oxir-oqibat odamlarning adolatga, ertangi kunga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Maqsad bitta – har bir insonni tinglash, aholi muammolarini o‘rganish va hal qilish.

Uchrashuv ishtirokchilaridan bir nechta: “Aviakompaniya tadbirkorlarga yuk tashuvi bo‘yicha qanday takliflari bor?” va “Nukusdan charter reyslarini tashkil qila

olamizmi?” savollari ular orasida eng asosiylaridan bir bo‘ldi.

Charter aviatashuvlari bo‘yicha savolga “Uzbekistan Airways” AJ boshqaruv raisining Tijorat va turizm bo‘yicha o‘rinbosari Shuhrat Yadgarov javob berdi:

- Garchi havo kemalarimizning qat’iy parvozlar jadvaliga muvofiq bandligini hisobga olsak ham, shuni aytishim mumkinki, biz har bir taklifni ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Charter aviaqatnovlar turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi, ayniqsa, agar bu masala chet ellik sayyohlarni mamlakatga jalb qilishni hisobga olgan holda ko‘rib chiqilsa.

Yuk tashish bo‘yicha tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash masalasi, shuningdek, eng yaxshi takliflarni ishlab chiqish va ta’minlash uchun tegishli tuzilmalarga yuborildi. Ta’kidlash joizki, Uzbekistan Airways har doim o‘zaro manfaatli takliflar uchun ochiq.



Sayyor qabul doirasida yo‘lovchilarni qiynayotgan muammolar bo‘yicha savol-javob tariqasida ishtirokchilar bilan muloqot qilinib, aholining murojaatlari atroflicha o‘rganib chiqildi. Murojaatlarning aksariyat qismi joyida yechimini topdi, qo‘shimcha o‘rganish va vaqt talab qiladigan murojaatlar bo‘yicha mas’ul rahbar va xodimlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Aviatashuvlar bo‘yicha agentlar, sayyohlik tashkilotlari vakillari jahon tajribasi asosida takomillashtirishni talab qiladigan masalalar bo‘yicha o‘z qarashlari bilan o‘rtoqlashdilar. Barcha istaklar diqqat bilan o‘rganilib, keyinchalik ishlab chiqish va amalga oshirish uchun olingan.

Sayyor qabullarda yo‘lovchilarning huquq va erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish, himoya qilish va kafolatlash bo‘yicha olib borilayotgan maqsadli ishlar haqida ham ma’lumot berildi.

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi xalq bilan uchrashuvlarni har bir viloyatda uyushtirib, yo‘lovchilarni qiynayotgan savollarga yechim topib, ularni taklif-mulohazalarini o‘rganishda davom etadi.



Download PDF